

# **МУҒАЛЛИМ ҲАМ ҮЗЛИКСИЗ БИЛИМЛЕНДИРИЎ**



***Илимий-методикалық журнал***

---

**2025**

**3/4-сан**

*Ўзбекистан Республикасы Министрлер Кабинети жанындагы  
Жоқарғы Аттестация Комиссиясы Президиумының  
25.10.2007 жыл (№138) қарары менен дизимге алынды*

*Қарақалпақстан Баспа сөз ғәм хабар агентлиги тәрәпинен  
2007-жылы 14-февральдан дизимге алынды.  
№01-044-санлы ғуўалық берилген.*

Нөкис



|                                                                                                                                                                               |     |
|-------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------|-----|
| <b>Ирисбоева Ё. Ў.</b> Олий таълим самарадорлигини оширишда технологик ёндашув тамойиллари .....                                                                              | 146 |
| <b>Turakulov B.N.</b> Ekopsoxologik kreativ qobiliyatini rivojlantirishning psixologik omillari .....                                                                         | 154 |
| <b>Xalmatova D. A.</b> Pedagogika oliy ta'lim muassasalarida talabalarni kompetensiyaviy yondashuv asosida kasbiy faoliyatga tayyorlashning pedagogik shart-sharoitlari ..... | 158 |
| <b>Begmatova D. M.</b> Jahon miqyosida ta'lim jarayoni subyektlarida madaniy immunitetni shakllantirish tendensiyalari .....                                                  | 165 |
| <b>Xalmuxamedova M.A.</b> Naqshbandiya tariqati vositasida bo'lajak o'qituvchilarning kasbiy kompetentligini takomillashtirishning nazariy-pedagogik asoslari .....           | 171 |
| <b>Xudayberganova M.S.</b> Biologiya darslarida innovatsion ta'lim metodlaridan foydalanishning ahamiyati .....                                                               | 177 |
| <b>Abdurazaqova F. K.</b> Shaxs kamoloti ijtimoiy-biologik hodisa va pedagogik jarayonning ob'ekti hamda sub'ekti sifatida uzluksiz ta'lim tendensiyalari kontekstida .....   | 181 |
| <b>Abdumurodova D.A.</b> 5-7 sinflarda ingliz tilidagi muloqot matnlari vositasida o'quvchilarni o'z-o'zini rivojlantirish ko'nikmalarini tarbiyalash .....                   | 187 |
| <b>Sindarova M. A., Temirov J.</b> CEFR asosida arab tili o'rgatuvchi o'qituvchilar malakasini oshirish: tajriba va istiqbollar .....                                         | 192 |
| <b>Usmonova M.S.</b> Biologiyani o'qitishda mustaqil ta'limni tashkil etishga qo'yiladigan pedagogik talablar .....                                                           | 196 |
| <b>Ro'zmetova M. M.</b> O'quvchilarda genderlik asosida intellektual liderlikni rivojlantirish .....                                                                          | 201 |

## МИЛЛИЙ ИДЕЯ ҲАМ РУЎХИЙЛИК ТИЙКАРЛАРИ, ТАРИЙХ, ФИЛОСОФИЯ

|                                                                                                                                                     |     |
|-----------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------|-----|
| <b>Абдумажидова Ҳ.</b> Марказий Осиё мамлакатлари модернизациялашув ва интеграциялашувнинг, ижтимоий-сиёсий муносабатлар фаоллашувига таъсири ..... | 206 |
| <b>Xalimbetov Yu. M.</b> Xorijda va o'zbekistonda ijtimoiy pedagogikaning rivojlanish tarixi .....                                                  | 213 |
| <b>Ulug'ov J.N.</b> Tarix darslarida milliy qadriyatlarini shakllantirishda pedagogik yondashuvlar .....                                            | 217 |
| <b>Allayarov D.I.</b> Mavlono Jaloliddin Rumiyning sofiylikda o'rni va uning maydonga kelishi .....                                                 | 221 |
| <b>Karimova M.Z.</b> Tarix fanini o'qitishda pedagogik texnologiyalarning ahamiyati .....                                                           | 229 |
| <b>Юлдашева Г.Ш.</b> Роль женщин-учёных в изучении флоры Центральной Азии (1920–1970 гг. XX века) .....                                             | 233 |

## ФИЗИКА, МАТЕМАТИКА, ИНФОРМАТИКА

|                                                                                                                                                                                    |     |
|------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------|-----|
| <b>Muratova B B.</b> Tasodifiy miqdorlar va ularning taqsimot qonunlarini talabalarga interaktiv metodlar yordamida tushuntirish .....                                             | 239 |
| <b>Jamolova Sh.Q., Abdiyaxmidova S.J.</b> Bo'lajak fizika fani o'qituvchilarining kasbiy kompetentligini rivojlantirishda dasturiy vositalardan foydalanishning afzalliklari ..... | 244 |
| <b>Зонрова А.И.</b> Исследование антикоррозионного смазывающего покрытия на основе низкомолекулярного полиэтилена .....                                                            | 250 |
| <b>Камалов А.Б.</b> Развитие познавательной активности студентов в процессе проблемного изучения физики .....                                                                      | 256 |

## БАСЛАҒЫШ КЛАСС, МЕКТЕПКЕ ШЕКЕМГИ ТӘРБИЯ

|                                                                                                                               |     |
|-------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------|-----|
| <b>Ajiniyazova A.P.</b> Baslawish klass oqiwshilariniñ taza jazıw kónlikpelerin qalıplestiriwdiñ áhmiyeti .....               | 262 |
| <b>Annayeva M.R.</b> Boshlang'ich sinf o'quvchilarida o'qish-bilish faollikni rivojlantirishning ilmiy-nazariy asoslari ..... | 267 |
| <b>Tajbenova D.K.</b> Interakt usuli va interaktiv metodning mazmuni va ilmiy asoslari .....                                  | 271 |
| <b>Turimbetova Z. B.</b> Hikoyalash va so'zni tilga chiqarishning lingvistik va pedagogik ahamiyati .....                     | 275 |



## PEDAGOGIKA OLIY TA'LIM MUASSASALARIDA TALABALARNI KOMPETENSIYAVIY YONDASHUV ASOSIDA KASBIY FAOLIYATGA TAYYORLASHNING PEDAGOGIK SHART-SHAROITLARI

*Xalmatova D.A.*

*Chirchiq davlat pedagogika universiteti*

*Pedagogika fakulteti Pedagogika kafedrasi katta o'qituvchisi*

**Tayanch so'zlar:** pedagogika, korpus, takomillashtirish, kompetentlik, kompetensiya, leksikologiya, yondashuv.

**Ключивые слова:** педагогика, корпус, совершенствование, компетентность, компетентность, лексикология, подход.

**Key words:** pedagogy, corpus, improvement, competence, competence, lexicology, approach.

### **РЕЗЮМЕ:**

Ushbu maqolada pedagogika o'liy ta'lim muassasalarida talabalarni kompetensiyaviy yondashuv asosida kasbiy faoliyatga tayyorlashning pedagogik shart – sharoitlari haqida so'z boradi.

### **РЕЗЮМЕ:**

В данной статье говорится о педагогических условиях и условиях подготовки студентов к профессиональной деятельности на основе компетентностного подхода в педагогических образовательных учреждениях.

### **SUMMARY:**

This article discusses the pedagogical conditions for preparing students for professional activity based on a competency-based approach in pedagogical higher education institutions.

Mamlakatimizdagi ta'lim siyosatining asosiy vazifasi – zamonaviy ta'lim sifatiga erishish, uning shaxs, jamiyat va davlatning hozirgi va bo'lg'usi ehtiyojlariga muvofiq bo'lishi hisoblanadi. Shu sababli o'qituvchilarni tayyorlashga katta e'tibor berilmoqda.

Oliy ta'lim tizimini tubdan takomillashtirish, mutaxassislar tayyorlash sifatini va o'qituvchilarning kasbiy mahoratini oshirish, zamonaviy hayot talablariga javob beradigan pedagogik korpusni tayyorlash va shakllantirish vazifasi mamlakat kelajagi uchun muhim ahamiyatga ega. Ushbu muammoni hal qilish uchun bugungi pedagogik ta'lim muassasalarida tayyorlanayotgan o'qituvchilar zamonaviy maktab talablariga to'liq javob bera olmayotgani uni barataraf etishti taqozo etmoqda.



Pedagog kadrlarni tayyorlash tizimini: uning tashkil etilishi, tuzilishi, mazmuni, malakaviy amaliyoti va ta'lim jarayonidagi innovatsion jarayonlar bilan o'zaro bog'liqlik tamoyillarini, o'qituvchilar tarkibini ko'paytirish va sifatini yaxshilashni kompleks isloh qilish uchun bir nechta modellarni ishlab chiqish va eksperimental ravishda sinovdan o'tkazish zarur. Zamonaviy maktablarimiz uchun mutlaqo boshqacha pedagogik kadrlar kerak. Qoidaga rioya qilishga odatlangan va har bir qadamda ko'rsatmalar kutib turadigan o'qituvchi bunday maktablarga mos kelmaydi. Zamonaviy maktab o'ziga jonli munosabatni, individual yondashishni talab qiladi.

Kompetentlikka asoslangan ta'lim sharoitida o'qituvchi ta'lim jarayonida an'anaviy ta'limga nisbatan bir oz o'zgacha funktsiya va rolni bajaradi. Bunday ta'lim shaklida o'qituvchidan:

- talabalarning mustaqil faol bilim faoliyatini tashkil etuvchi;
- kompetentli maslahatchi va yordamchi;
- talabalar harakatini psixologik-pedagogik aspektda baholay oladigan, ularga samarali harakatlari bilan tez yordam berishga va o'zlashtirilgan malaka va ko'nikmalarni amalda qo'llash jarayonida uchraydigan qiyinchiliklarni bartaraf etishga qodir mutaxassis bo'lish talab etiladi.

Har bir ta'lim muassasasi ta'lim jarayoni talabalarni haqiqiy hayotga, faoliyatga, shu bilan birga, o'zligini anglash, takomillashtirishni maqsad qiladi. Faqatgina bu holat ertangi kun, kelajakka yo'naltirilgan ta'lim tizimi va pedagogika fanida har qanday ijobiy o'zgarishlarni muvaffaqiyatli amalga oshirilishi bilan kafolatlanadi.

Tadqiqotchilarning ta'kidlashicha, kompetentlikka asoslangan ta'lim (competence-based education – CBE) o'tgan asrning 70-yillarida Amerikada N. Xomskiy tomonidan til nazariyasi va transformatsion grammatikaga bog'lab taklif qilingan kompetensiya tushunchasi negizida shakllangan. R. Uaytning "Motivatsiya qayta ko'rib chiqildi: kompetentlik konsepsiyasi (1959)" asarida kompetensiya kategoriyasi shaxsiy fazilat ekanligi qayd etiladi hamda u motivatsiya bilan to'ldirilgan.

Shu tarzda kompetensiyaga asoslangan yondashuv, dastavval, xorijiy tillar ta'limi doirasida qo'llanilgan bo'lsa, asta-sekin barcha fanlarni o'qitishda ustuvor yo'nalishga aylanishi uni yanada chuqurroq tadqiq etishni taqozo etadi.

Ko'pgina lug'atlarda "kompetentlik" va "kompetensiya" tushunchalari farqlanadi. "Kompetensiya" uchun yagona ta'rif mavjud emasligi sababli u turlicha izohlanadi: "muayyan organ yoki mansabdor shaxsning rasmiy hujjatlarda belgilangan vakolatlari doirasi; vakolat yoki shaxsning biror-bir sohadan xabardorlik, shu sohani bilish darajasi".

Odatda, kompetentlik va kompetensiya atamaları o'zaro muqobil so'zlar deya qaralishi sababli quyida ular o'rtasidagi aniq farqlar borasida batafsil fikr yuritamiz.



Yuqoridata'kidlabo'tilganidek, chettillarinio'qitishmetodikasidakompetentlikka asoslangan yondashuv g'oyasi bizga G'arbdan kirib kelgan. Kompetentlikka asoslangan yondashuvda asosiy tushuncha bu kompetensiyadir. Bu haqida so'z borganda "kompetentlik" tushunchasini ham tilga olinadi. E.D.Bozovichning qayd etishicha, ilmiy adabiyotlarda bu ikki atama ko'pincha sinonim sifatida ishlatiladi, shunga qaramay, ular bir-biridan farq qiladi: "Kompetensiya - bu bilim sohasi bo'lib, undan inson professional, ehtimol, havaskor sifatida xabardor bo'lishi, uni bilishi mumkin; kompetentlik esa, odatda, ma'lum bir sohada yuqori darajadagi malakani nazarda tutadi va mutaxassisning bu sohadagi fikri ishonchli (e'tiborli) hisoblanadi".

Shuni e'tiborga olish kerakki, rus metodik adabiyotlarida kompetensiya va kompetentlik atamalarining farqlanishi tarjima yoki rus tili so'z yasallishining o'ziga xos xususiyatlari natijasida paydo bo'lmagan. Ingliz tilida ham turli xil suffikslarga ega bo'lgan ikkita atama mavjud: "competence" va "competency" hamda shunga monand ushbu atamalarning ma'nolari to'g'risida turli xil qarashlar ko'zga tashlanadi.

Nemis tilida "Kompetenz" atamasigina mavjud, shuning uchun kompetensiya va kompetentlik atamaları o'zaro farqlanmaydi. Xorijiy metodik adabiyotlarda ushbu atamalarning o'ziga xosligi yoki farqlanishi to'g'risida yakdil fikr mavjud emas: ba'zi xorijiy tadqiqotchilar ushbu tushunchalarni o'zaro qarama-qarshi qo'yishsa, boshqalari ularni bir-birini to'ldiruvchi deb hisoblashadi. Natijada, ta'riflar bo'yicha aniq biror xulosaga kelish ancha bahsli. "Competency" atamasiga to'xtalsak, kognitiv, funksional va ijtimoiy kompetensiyalar, shuningdek, boshqa sanab o'tilgan kompetensiyalarni o'zlashtirish uchun talab etiladigan metakompetensiyalar mavjud; shu asosda menejmentda ham, ta'limda ham qo'llaniladigan turli xil modellar yaratilgan.

Rus tadqiqotchilari ushbu munozaraga to'xtalib, o'z ta'riflarini berishadi, ular ham muayyan darajalarda bir-birlariga zid. Misol uchun, I.Y.Zimnyaning fikriga ko'ra, "kompetentlik" tushunchasi "kompetensiya" tushunchasidan kengroq mazmunga ega, chunki u o'z ichiga kognitiv-bilim, motivatsion, "o'zaro munosabat" va tartibga soluvchi tarkibiy qismlarni qamrab oladi. Kompetentlik muayyan kompetensiyalar (qismlari) asosida rivojlanadi.

Buning uchun ilmiy manbalarda hamda respublikamiz va xorijlik ko'pgina pedagog olimlarning ilmiy ishlarida "Kompetensiya" va "Kompetentlik" tushunchalari mazmun-mohiyatini tadqiq etamiz.

Ta'lim tizimiga kompetent yondashuv xorijiy adabiyotlarda o'tgan asrning 60 yillarida shakllana boshlanib, "Kompetensiya" masalasi ko'p yillardan buyon olimlar tomonidan o'rganilib kelinmoqda.



Kompetentlik tushunchasining lugʻaviy maʼnosi turli tillarda quyidagicha izohlangan: Competent (fransuz tilida) – vakolatli; Competent (lotin tilida) – qobiliyatli; Competent (ingliz tilida) - qobiliyatli.

“Kompetensiya” va “Kompetentlik” tushunchalari mohiyatini anglash maqsadida quyidagi lugʻatlariga eʼtiborimizni qaratdik:

“Oʻzbekiston milliy ensiklopediyasi”da kompetensiya quyidagicha talqin etilgan: kompetensiya – u yoki bu sohadagi bilimlar, tajriba .

S.I.Ojegov bu tushunchalarni rus tili izohli lugʻatida quyidagicha izohlaydi: “Kompetensiya – 1. Biror kishi juda yaxshi bilgan yoki xabardor boʻlgan masalalar doirasi. 2. Biror kishining vazifalari, huquqlari doirasi”.

“Kompetentlik - biror soha boʻyicha har tomonlama chuqur bilimga ega boʻlgan va shuning uchun ham fikri salmoqli, ishonchli hisoblangan kishining sifati”.

Kompetentlik bu bilimlarni namoyon etishning oʻziga xos turi boʻlib, shaxsning umumiy rivojlanishida, kasbiy masalalarni maksimal darajada samarali hal qila bilish va tevarak-atrofnı obektiv baholay bilish imkonini beruvchi aqliy tajribaning tarkibiy qismlari, axborotni qayta ishlash mexanizmi, individual ravishda intellektual faoliyatni tanlay bilish koʻnikmasining shakllanganligida oʻz ifodasini topadi.

Xorijiy adabiyotlar tahlili koʻrsatdiki, kompetentlik “chuqur bilimlar egasi”, “murakkab masalalarni yechish qobiliyati”, “oʻz paytida dolzarb faoliyatni amalga oshirish qobiliyati” kabi maʼnolarni anglatadi.

Taʼlim sohasiga “kompetentlik” tushunchasini olib kirish zarurati masalalari E.F.Zeyerning ilmiy ishlarida har tomonlama keng yoritilgan. Olimning taʼkidlashicha, kompetentlik konkret vaziyatlarda (ijtimoiy va kasbiy) yaqqol koʻzga tashlanadi.

Muallifning fikricha, kompetentlik bilimlar, mahorat, tajriba sifatida ijtimoiy-kasbiy vaziyatda aniq faoliyat mobaynida roʻyobga chiqadi. Bilim, mahorat va tajriba inson qay darajada kompetentlikka ega ekanligini belgilaydi, bu bilimlarni qoʻllay olish, mahorat va tajribalarni konkret ijtimoiy-kasbiy vaziyatlarda ishga solish maʼlumotli va kasbiy shakllangan shaxsning qay darajada kompetentlikka ega ekanligidan dalolat beradi .

Psixologik-pedagogik adabiyotlarda oʻtgan asrning 90 yillarida asosan “Kasbiy kompetentlik”, “Pedagogning kasbiy kompetentligi”ga keng eʼtibor qaratildi.

Tadqiqot ishlarida kasbiy kompetentlik mazmun-mohiyati uning tuzilishi masalalari toʻgʻrisidagi fikrlar oʻzaro tafovutga ega edi. Kasbiy kompetentlikni turlicha izohlash hollari yuzaga keldi:

- maʼlum bir boshlangʻich funksiyasini bajarish qobiliyati;
- “Malaka”, “Mahorat” kabi inson koʻnikmalari (A.K.Makarova);
- kasbiy maʼlumotlilik darajasi;



- insonning tajribasi va individual qobiliyati, uning o'z bilimi va malakasini oshirib borishga intilishi, uning ishga ijodiy yondashuvi va o'z ishiga mas'uliyati (B.S.Gershunskiy);

- kasbiy bilim, malaka va ko'nikmalarga ega bo'lish (O.Abduqudusov, H.Rashidov);

pedagogik madaniyat va malakasini oshirib borish imkoniyati (YE.B.Bondarevskaya);

- bilim, mahorat, o'ziga xoslik va shaxsning o'quv-tarbiya jarayonlarini tashkil etishdagi qobiliyati (V.A.Sitarov);

Pedagog olim L.N.Ponamarev kasbiy kompetentlik tushunchasini shaxsning tajribasi, ma'lumotining ijtimoiy yo'naltirilganligi, insonning ma'lum bir maqsad yo'lidagi amaliy faoliyati natijalari; kasbiy bilimlarini hayotda samarali qo'llashi kabi shaxsning o'ziga xos sifatleri va kompetentligi sifatida baholangan;

Kasbiy kompetentlikning rivojlanishi ma'lum muhitdagi jarayon hisoblanadi. Uning natijasi pedagoglarning sifat jihatdan o'sishi bilan belgilanadi. Ularda o'zini namoyon qilish, o'z ustida ishlash kabi istaklarning paydo bo'lishi bilanoq, ularning takomillashuv sari odimlay boshlaganliklarini ko'rish mumkin. Pedagogning o'z ustida ishlashi, mustaqil ravishda bilim va mahoratlarini oshirib borishi haqidagi g'oya ta'limning asosiy qadriyatlaridan biri hisoblanadi.

Bizning fikrimizcha, pedagogning kasbiy kompetentligi tasnifida quyidagi asoslar mavjud:

- pedagogning ish joyi bo'yicha kompetentligi (maktabgacha ta'lim muassasi, umumta'lim maktablari, akademik litsey va kasb-hunar kollejlari, oliy ta'lim muassasalari, malaka oshirish institutlari va boshqalar);

- pedagogning tanlagan ixtisosligi bo'yicha kompetentligi (o'qituvchi, trbiyachi, psixolog, ijtimoiy pedagog, defektolog, texnologiya o'qituvchisi, ishlab chiqarish ustasi);

- pedagogning faoliyati yo'nalgan obekt bo'yicha kompetentligi (balalarning turli toifalari, ota-onalar, sinf jamoasi, sotsium va boshqalar);

- pedagogning faoliyati turi bo'yicha kompetentligi (motivatsion, gnostik, metodologik, metodik, informatsion, kommunikativ, refleksiv, prognostik, konstruktiv, tadqiqot, texnologik korreksion va boshqalar).

N.N.Natsarenus fikricha, "Kasbiy kompetentlik" subektning salohiyati hisoblanib, uning bu sifati malaka oshirish jarayonida namoyon bo'ladi. Shu bilan birgalikda, uning bu sifati mustaqil faoliyati davomida takomillashib boradi, u o'z kasbining ustasi bo'lib yetishadi, oliy mahorat egasiga aylanadi. O'z kasb-kori sir-asrorlarini chuqur egallaydi, axborotlar bilan ishlashda ijodiy yondashadi.

Shuni ta'kidlash zarurki, kasbiy kompetentlik faoliyat ko'rsatayotgan sub'ktning individual va integral sifatidir. Bu sifatlar ikki bosqichda shakllanadi jarayoni ega:



1) ta'lim olish jarayonida kasbiy faoliyatga nazariy jihatdan tayyorgarlik; 2) bevosita faoliyat jarayonidagi amaliy tayyorgarlik, o'z faoliyatini amaliyotda qo'llay olish ko'nikmasiga ega bo'lish.

Pedagog olim I.V.Grishina kasbiy kompetentlik shaxsning o'z kasbiy faoliyatini qanchalik darajada egallaganligi, deb baho beradi va quyidagicha sifatlaydi:

- ushbu faoliyatga bo'lgan munosabati, unga zarurat va qiziqishi, intilishlari, qadriyatlari, faoliyatdan maqsadi, o'zining ijtimoiy o'rnini tasavvur qilishi;
- o'zining shaxsiy o'ziga xosligi va mutaxassis sifatidagi mavqeiga, kasbiy bilim, mahorat va ko'nikmalari, kasbiga xos boshqa xususiyatlariga baho berish;
- shu asosda o'zini kasbiy jihatdan shakllashini va o'sishini boshqara bilishi.

1. Kompetensiya – bu muayyan (pedagogik) muammoni hal qilish, to'siqlarni yengib o'tish va maqsadlarga erishishni ta'minlaydigan, muvaffaqiyatli harakat qilishning o'ziga xos strategiyasi bo'lib, u ma'lum bir predmet va jarayonlar doirasi bilan bog'liq bo'lgan hamda ular doirasida professional ijodiy faoliyat uchun talab etiladigan, o'zaro chambarchas bog'liq xususiyatlar majmui (bilim, mahorat, ko'nikma, kasbiy layoqat)dir.

2. Kompetentlik – shaxsning o'z faoliyat predmeti va shaxsiyatiga monand muayyan kompetensiyalarga egaligini ifodalovchi hamda egallangan bilim, malaka va ko'nikmalar yordamida muvaffaqiyatli faoliyat yuritishga imkon yaratuvchi integral shaxsiy resurslardir.

Har bir shaxs, xususan, mutaxassis qanday kompetensiyaga ega bo'lsa, uning kompetentlik darajasi shunga monand namoyon bo'ladi.

Yuqorida qayd etilgan ilmiy fikr va xulosalarga tayangan holda biz "kompetentlik"ni "kompetensiya"ning hosilasi, degan fikrga qo'shilamiz.

Yuqoridagi tahlillardan kelib chiqib, "Kompetentlik" o'z bilimlarini tinmay boyitib borishni, yangi axborotlarni o'rganishni, shu kun va davr talablarini his etishni, yangi bilimlarni izlab topish mahoratini, ularni qayta ishlashni hamda o'z amaliy faoliyatida qo'llay bilishlikdir, deb ta'kidlash mumkin. Kompetentlikka ega bo'lgan mutaxassis muammolarni yechishda o'zi o'zlashtirib olgan, aynan shu sharoitga mos metod va yo'llardan foydalanishni yaxshi bilishi, hozirgi vaziyatga munosib bo'lgan metodlarni tanlab olib, qo'llashi, to'g'ri kelmaydiganlarini rad etishi, masalaga tanqidiy ko'z bilan qarashi kabi ko'nikmalarga ega bo'ladi degan xulosalarga kelish mumkin.

Oliy ta'lim muassasasida kompetentlikka yo'naltirilgan ta'lim shunday tashkil etilishi kerakki, talaba auditoriyadagi ta'lim vaqtida ham, auditoriyadan tashqaridagi vaqtlarda ham ijodiy ish bilan mashg'ul bo'lishi va quyidagilarni bajara olishi lozim:

- muammoli vaziyatlarning yechimini topa bilish;



- o'z fikrini himoya qila olish va nostandart hayotiy va o'quv vazifalarni hal etishda o'zining nuqtai nazariga ega bo'lish;
- o'qish-o'rganish va amaliy faoliyatda o'zini namoyon qilishning noan'anaviy usullarini doimiy ravishda egallab borish lozim.

#### FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. Tolipov.O'.Ro'ziyeva D.Pedagogik texnologiyalar va pedagogik mahorat: Oliy ta'lim muassasalarining barcha yo'nalishdagi magistratura mutaxassisliklari uchun o'quv qo'llanmasi. – T.: Innovatsiya-ziyo, 2019. – B. 3.
2. Абдраимова Б.Б. Бўлажак биология ўқувчиларини тайёрлашда педагогик диагностика методикасини такомиллаштириш: Пед. фан. ... фалсафа д-ри (PhD) дис. Автореф. – Т., 2020. – Б. 11.
3. Воспитательный процесс: изучение эффективности: Методические рекомендации / Под ред. Е.Н. Степанова. – М., 2000
4. O'Jo'rayev R. H. va boshqalar.Pedagogika fani konsepsiyasi.-Toshkent: O'qituvchi, 2014.-232 b.260
5. Ernazarova.G. O.Tarbiyaviy ishlar metodikasi. -Toshkent.: "Fan va texnologiyalar", 2017. -210 b.
6. O'zbekiston Respublikasini yanada rivojlantirish buyicha harakatlar strategiyasi. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining Farmoni. O'zbekiston Respublikasi qonun hujjatlari to'plami, 2017 yil, 6-son,70-modd.
7. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining "Xalq ta'limini boshqarish tizimini takomillashtirish bo'yicha qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida"gi (2018 yil 5 sentyabr) PF-5538-sonli Farmoni //https://lex.uz/ docs/3893445.
8. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining "Ta'lim-tarbiya tizimini yanada takomillashtirishga oid qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida"gi PQ-4884-son (2020 yil 6 noyatr) Qarori // https://lex.uz/docs/5085887.
- 9.Abdullayeva Sh.A.Pedagogik diagnostika.-Toshkent: Fan va texnologiyalar, 2010 - 256 b.
10. Abdullayeva Sh. A. O'quvchilarni pedagogik tashxislashda qo'llaniladigan metodlar//Xalq ta'limi, 2016 ,№3, 40-45 b.b.
11. Denyakina L.I.Pedagogicheskaya diagnostika- dvijushaya sila pedagogicheskogo kolektiva -Moskva: Universitet,200,198 s.
12. Frances C.Waksler.Studying the Social Worlds of Children - London. 1991. -176p.
13. Khalmatova, D.A., Inomova, Z.I. (2023). Independent creativity of students improvement of activities based on competency approach. Conference Ural,1(1), 289-293.
14. Alimzhanovna, D. Kh., & Kyzi, I. Z. U. (2023). Improvement of independent creative activity of students based on the competence approach (in the example of pedagogy of higher educational institutions) Science and innovation, 2(Special Issue 5), 290-294
15. Khalmatova, D.A (2023). Pedagogical and psychological foundations of mixed education Teacher, 1(7), 253-262
16. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining Farmoni. O'zbekiston Respublikasini yanada rivojlantirish bo'yicha Harakatlar strategiyasi to'g'risida (O'zbekiston Respublikasi qonun hujjatlari to'plami, 2017 y., 6-son, 70-modd)
17. O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Sh.Mirziyoevning Oliy Majlisga Murojaatnomasi. Xalq so'zi gazetasi 2020 yil 25 yanvar №19
18. O'zbekiston Respublikasi Oliy ta'lim tizimini 2030-yilgacha rivojlantirish konsepsiyasi.
19. Байденко В. Болонский процесс: проблемы, опыт, решения. – М.: Исследовательский центр проблем качества подготовки специалистов, 2006.
20. N.X. Mamadiyeva. Oliy talim tizimida ijtimoiy-gumanitar fanlarni o'qitishning o'ziga xos xususiyatlari // Xalk ta'limi, 2018.
21. Кривель Ч.С., Бородич А.А. Социо-гуманитарное знание как условие оптимальных политических решений и адекватного исторического выбора // Проблемы управления. – 2009. – № 2 (31).
22. Кoryтов В.А. Некоторые размышления о судьбе дополнительного профессионально-технического образования (по материалам работы НОУ «Межотраслевой институт») // Современные проблемы науки и образования. – 2009. – № 2.



## JAHON MIQYOSIDA TA'LIM JARAYONI SUBYEKTLARIDA MADANIY IMMUNITETNI SHAKLLANTIRISH TENDENSIYALARI

**Begmatova D.M.**

*SamDCHTI, Pedagogika, psixologiya va  
jismaniy madaniyat kafedrası mudiri, pedagogika  
fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent*

**Tayanch so'zlar:** madaniy immunitet, ta'lim jarayoni, globalizatsiya, madaniyatlararo muloqot, pedagogik yondashuvlar, innovatsion ta'lim, milliy madaniyat, ta'lim subyektlari, ma'naviy barqarorlik, xalqaro tajriba.

**Ключевые слова:** культурный иммунитет, образовательный процесс, глобализация, межкультурный диалог, педагогические подходы, инновационное образование, национальная культура, субъекты образования, духовная устойчивость, международный опыт.

**Key words:** cultural immunity, educational process, globalization, intercultural dialogue, pedagogical approaches, innovative education, national culture, educational subjects, spiritual stability, international experience.

### РЕЗЮМЕ:

Maqolada jahon miqyosida ta'lim jarayoni subyektlarida madaniy immunitetni shakllantirish tendensiyalari tahlil qilinadi. Madaniy immunitet jamiyat a'zolarining milliy va umumbashariy qadriyatlarni anglash, ularni himoya qilish hamda turli madaniy ta'sirlarga nisbatan barqarorlikni shakllantirish qobiliyati sifatida qaraladi. Globalizatsiya sharoitida ta'lim jarayoni orqali yosh avlodning madaniy o'zligini saqlab qolish, tolerantlikni rivojlantirish va madaniyatlararo muloqotga yo'naltirish muhim vazifa hisoblanadi. Tadqiqotda turli mamlakatlarning tajribalari, innovatsion ta'lim metodlari va pedagogik yondashuvlar asosida madaniy immunitetni shakllantirish strategiyalari ko'rib chiqiladi.

### РЕЗЮМЕ:

В статье анализируются тенденции формирования культурного иммунитета у субъектов образовательного процесса в мировом масштабе. Культурный иммунитет рассматривается как способность членов общества осознавать национальные и общечеловеческие ценности, защищать их и формировать устойчивость к различным культурным влияниям. В условиях глобализации важной задачей является сохранение культурной идентичности молодого поколения, развитие толерантности и ориентация на межкультурный диалог через образовательный процесс. В исследовании рассматриваются стратегии формирования культурного иммунитета на основе опыта различных стран, инновационных образовательных методов и педагогических подходов.